



HAFTALIK UY TOPSHIRIQLARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI O'QUVCHILARNING O'ZLASHTIRISH DARAJASINI OSHIRISH METODIKASI

Saipova Hilolaxon Abdulhamitovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tojiboyeva Mo'nisaxon Umidbek qizi

Farg'ona davlat universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida haftalik uy topshiriqlarini optimallashtirishning nazariy asoslari, samarali loyihalash tamoyillari va o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, miqdoriy va sifat jihatdan to'g'ri rejalashtirilgan uy topshiriqlari o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ta'lim jarayonining samaradorligini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: topshiriq, uy ishi, optimallashtirish, boshlang'ich sinf, o'quvchi, metod.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретические основы, эффективные принципы разработки и влияние оптимизации еженедельных домашних заданий в начальном образовании. Результаты исследования показывают, что качественно и количественно грамотно спланированные домашние задания повышают мотивацию учащихся, развивают навыки самостоятельного мышления и повышают эффективность образовательного процесса.

Ключевые слова: задание, домашняя работа, оптимизация, начальная школа, ученик, метод.

Abstract: This article discusses the theoretical foundations, effective design principles, and impact of weekly homework optimization in primary education. The results of the study show that quantitatively and qualitatively well-planned homework increases students' motivation, develops independent thinking skills, and enhances the effectiveness of the educational process.

Keywords: assignment, homework, optimization, elementary school, student, method.

KIRISH

Har qanday davlatning kelajagi, eng avvalo, uning ta'lim tizimining sifatiga bog'liq. Bugungi globallashuv sharoitida yosh avlodning zamonaviy bilimga ega bo'lishi, tafakkuri keng va raqobatbardosh bo'lib ulg'ayishi milliy taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda. O'zbekistonda ham ta'lim tizimi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.



Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'lim sohasining jamiyat taraqqiyotidagi hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlab, "Iqtisodiyot rivoji, farzandlarimizning kelajagi faqat ta'lim va muallimga bog'liq" degan g'oyani ilgari suradi. Bu yondashuv ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi mehnatini qadrlash va maktab tizimini tubdan modernizatsiya qilishni nazarda tutadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa o'quvchining bilimi, tafakkuri va xarakteri shakllanadigan eng muhim poydevor hisoblanadi. Shu bois boshlang'ich ta'limda uy topshiriqlarini to'g'ri tashkil etish, ularning miqdori va mazmunini yosh xususiyatlariga moslashtirish ta'lim samaradorligining muhim omilidir. Bu o'rinda albatta boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari ilk poydevorni qo'yar ekan, ulardan o'z ustida ishlash, yangiliklarga "ochiq" bo'lishni talab etadi. Bu jarayonda o'quvchilar bilimni qiziqarli tarzda mustahkamlash, takrorlash topshiriqlarini yangi darajaga olib chiqish zarurati tug'iladi.

Boshlang'ich ta'limda uy topshiriqlari o'quvchilarning bilimni mustahkamlash, mustaqil fikrlash, izlanish va mas'uliyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Ammo ko'p hollarda uyga beriladigan topshiriqlarning miqdori va murakkabligi o'quvchi yoshiga mos kelmaydi. Natijada o'quvchi charchaydi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish qiyinlashadi va o'qishga bo'lgan qiziqish pasayadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda haftalik uy topshiriqlarini optimallashtirish masalasi dolzarb hisoblanadi.

Optimallashtirish — bu jarayonni eng qulay, eng samarali, o'quvchi imkoniyatlariga mos shaklga keltirish demakdir. Bunda topshiriqlar soni, sifati, shakli va bajarish vaqti to'g'ri taqsimlanadi hamda o'qituvchi–o'quvchi–ota-ona hamkorligi kuchaytiriladi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, to'g'ri rejalashtirilgan, qisqa, qiziqarli va maqsadga yo'naltirilgan uy topshiriqlari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ancha oshiradi. Shu bois ushbu maqolada haftalik uy topshiriqlarini loyihalash, samaradorligini belgilash, optimallashtirish tamoyillari va o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ushbu tadqiqotda pedagogik tahlil, kuzatish, taqqoslash, o'quvchilar faoliyatini diagnostika qilish kabi metodlardan foydalanildi. Zamonaviy uy topshiriqlarini loyihalash bo'yicha ilmiy manbalar, xalqaro tajribalar va o'qituvchilar amaliyoti o'rganildi. Olingan ma'lumotlar asosida haftalik uy topshiriqlarining optimal modeli ishlab chiqildi.

Uy vazifasi uchun sarflanadigan vaqt, resurs va tashkiliy jarayonlar uning samaradorligini ta'minlashni taqozo etadi. Shu bois, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishdagi faolligini oshirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar natijasiga tayangan holda bir qator pedagogik yondashuvlar taklif qilinadi.

1. Uy vazifasining asosiy maqsadini aniqlash va uni o'quvchilarga yetkazish. Uy vazifasini samarali tashkil etish, avvalo, uning maqsadini aniq belgilashdan boshlanadi. Uy vazifasi sinfda o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yangi mavzuga tayyorgarlik ko'rish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil o'qish odatini shakllantirish yoki



diagnostik maqsadda berilishi mumkin. O'qituvchi topshiriqning maqsadini ochiq izohlaganida, o'quvchilar uni bajarishga bo'lgan mas'uliyatni yuqoriroq darajada his etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi topshiriqning mazmunini emas, balki uning nimaga xizmat qilishini bilganida, motivatsiya sezilarli oshadi.

2. Onlayn topshiriqlarga an'anaviy yozma vazifalar kabi jiddiy munosabatda bo'lish. Zamonaviy ta'lim jarayonida onlayn platformalardan foydalanish kengaydi. Biroq ayrim o'qituvchilar onlayn topshiriqlarni "qo'yib qo'yish va unutish" tamoyili asosida berayotganligi sababli o'quvchilar ularni jiddiy qabul qilmaydi. Ilmiy izlanishlar onlayn uy vazifasining samaradorligi o'qituvchining unga bo'lgan munosabatiga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun onlayn topshiriq ham nazorat qilinishi, tahlil qilinishi va sinf jarayoniga integratsiya qilinishi lozim.

3. Qisqa, lekin muntazam uy vazifalarini belgilash. Pedagogik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, muntazam beriladigan qisqa topshiriqlar o'quvchilar uchun qulayroq va samaraliroqdir. Bunday yondashuv o'quvchining doimiy o'quv faoliyatini odatga aylantiradi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda uzoq davom etuvchi, murakkab vazifalar o'quvchini charchatib qo'yishi mumkin. Shuning uchun uy vazifasi miqdori va davomiyliги yosh imkoniyatlariga mos bo'lishi ilmiy asoslangan talabdir.

4. Uy vazifasining sifatini ta'minlash. Uy vazifasining faqat ko'pligi emas, balki sifati ham o'quvchilar motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi. Sifatli uy vazifasi — bu o'quvchining fikrlashga undaydigan, qiziqarli va ta'limiy maqsadga xizmat qiladigan topshiriqdir. Dettmers va hamkorlarining tadqiqotlariga ko'ra, mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan vazifalar o'quvchining o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini mustahkamlashi mumkin.

5. Uy vazifasini bajarish bo'yicha ijobiy me'yor yaratish. Ta'lim muhitida ijtimoiy me'yor juda kuchli motivator hisoblanadi. Agar sinfda uy vazifasini muntazam bajarish odat tusiga kirgan bo'lsa, boshqa o'quvchilar ham shu me'yorni qabul qiladi. Buning uchun ota-onalar bilan muntazam aloqa, ijobiy rag'batlantirish, muvaffaqiyatni ko'rsatish va jamoaviy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

6. O'quvchilar duch kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish. Uy vazifasini bajarmaslikning sabablari ko'pincha tashkiliy yoki psixologik to'siqlar bilan bog'liq bo'ladi: vaqt yetishmasligi, texnik vositalarning yo'qligi, topshiriqni tushunmaslik, qulay muhitning bo'lmasligi va boshqalar. O'qituvchi ushbu ehtimoliy to'siqlarni oldindan bilib, ularni kamaytirish bo'yicha choralar ko'rganda o'quvchining uy vazifasini bajarish ehtimoli oshadi.

7. Uy vazifasining birinchi savolini eng oson variantdan boshlash. O'quvchi vazifani oson savoldan boshlasa, dastlabki muvaffaqiyat unga ruhiy ko'tarinkilik beradi va qolgan topshiriqlarni bajarishda motivatsiya oshadi. Bu psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmi sifatida muhim.

8. Qiyin vazifa uchraganda bajarilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha yo'l-yo'riqlarni ko'rsatish. Agar o'quvchi topshiriqda to'xtab qolsa, qanday yordam manbalariga murojaat qilishi oldindan ma'lum bo'lishi kerak: videodarslar, tayanch javoblar,



darsdoshlardan maslahat, o'qituvchi bilan belgilangan maslahat vaqti va boshqalar. Bu o'quvchi mustaqilligini oshiradi.

9. Uy vazifasining shaklini standartlashtirish. Topshiriqlarning shakli bir xil bo'lsa, o'quvchi har safar yangi struktura bilan qiynalib o'tirmaydi. Bu e'tiborni mazmunga jamlash va uy vazifasini osonroq bajarishga yordam beradi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun.

10. Uy vazifasini berish va topshirish vaqtida izchillikka amal qilish. Har hafta uy vazifasini bir xil kun va bir xil vaqtda berish o'quvchi uchun odat yaratadi. Pedagogik izchillik o'quvchining kun tartibiga moslashishini osonlashtiradi.

11. Uy vazifasi bajarilmaganda izchil tartib va javobgarlik choralari qo'llash. Uy vazifasining muntazam bajarilishini ta'minlash uchun izchil javobgarlik tizimi bo'lishi kerak. Bu jazolash emas, balki tartibni saqlash va mas'uliyatni shakllantirish vositasidir. Har bir sinf o'zining pedagogik tamoyillariga mos choralarni belgilaydi.

12. Uy vazifasini dars jarayoni bilan integratsiya qilish. Uy vazifasi darsning davomiy qismi bo'lishi kerak: darsda tahlil qilish, xatolarni ko'rib chiqish, o'quvchilarning mehnatini qadrlash. Bu o'quvchida uy vazifasining ahamiyatini oshiradi va o'rganish jarayonini yaxlit tizimga aylantiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun uy topshiriqlari bir nechta muhim funksiyani bajaradi: bilimni mustahkamlash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, mas'uliyatlikni shakllantirish va ota-onalar ishtirokini ta'minlash. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun uy topshirig'i o'rganilgan mavzularni mustahkamlash, o'qish va yozish malakasini shakllantirish, mas'uliyat va mustaqillikni rivojlantirish, o'quv-bilish jarayonini davom ettirish, ota-onalarni o'quv jarayoniga jalb qilish kabi funksiyalarni bajaradi. Uy topshiriqlari to'g'ri tashkil etilsa, o'quvchi o'quv jarayonini oson qabul qiladi, mustaqil ishlashdan zavq oladi va bilimlarni uzoq muddat saqlab qoladi. Uy vazifasi umumta'lim maktablarida o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini mustahkamlash va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ammo ko'plab holatlarda uy topshiriqlarining ortiqcha murakkab yoki ko'p bo'lishi o'quvchilarda charchoq, motivatsiya pasayishi va bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishiga olib keladi. Shuning uchun uy topshiriqlarini optimallashtirish tamoyillari quyidagilar sifatida belgilandi:

1. Miqdorni moslashtirish tamoyili. Ortiqcha topshiriqlar o'quvchi charchashiga olib keladi, shu bois haftalik yuklama 10–15 daqiqalik qisqa bloklarga taqsimlanishi kerak.

2. Soddadan murakkabga tamoyili. Topshiriqlar o'quvchilarning yoshiga mos holda asta-sekin murakkablashib borishi lozim.

3. Qiziqarli va interaktiv shakllar tamoyili. O'yin texnologiyalari, QR-topshiriqlar, rasmlar asosidagi mashqlar o'quvchilarni zeriktirmaydi.

4. Vaqtni tejash tamoyili. Haftalik uy vazifalari ortiqcha vaqt olmaydigan, qisqa va maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.



5. Ota-ona bilan hamkorlik tamoyili. Ba'zi topshiriqlar ota-onalar bilan birga bajarilishi oilaviy muloqotni rivojlantiradi.

Uy topshiriqlarini samarali loyihalash metodlari ham ishlab chiqildi: – “Kichik blokli topshiriqlar tizimi”; – “Oila bilan 10 daqiqa” mashg'ulotlari; – Diagramma, jadval va rasm asosidagi topshiriqlar; – Amaliy hayotga bog'langan topshiriqlar (do'konda pul sanash, tabiatni kuzatish va boshqalar); – “Bitta savol – bitta javob” metodi.

Optimallashtirilgan uy topshiriqlari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi, o'qituvchi–o'quvchi–ota-ona hamkorligini kuchaytiradi va o'zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi. Tadqiqot davomida boshlang'ich sinflarda uy topshiriqlarini optimallashtirishning o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'siri keng qamrovli tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, uy vazifalarining miqdoriy va sifat jihatdan to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Xususan, haftalik vazifalar qisqa, aniq maqsadga yo'naltirilgan va yosh xususiyatlariga mos tarzda berilganida, o'quvchilarda darsga tayyorlanish odati shakllanadi, mustaqil fikrlash kuchayadi hamda o'quv jarayoni yengil va qiziqarli tus oladi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, uy topshiriqlarining haddan ziyod murakkab bo'lishi o'quvchida charchoq, vaqtni noto'g'ri taqsimlash, motivatsiyaning pasayishi va bilimlarni yuzaki o'zlashtirishga olib keladi. Aksincha, 10–15 daqiqalik kichik bloklardan iborat uy vazifalari o'quvchini zo'riqtirmagan holda muntazam rivojlanishga xizmat qiladi. Ayniqsa, topshiriqlarning “soddadan murakkabga” tamoyili asosida tuzilishi o'quvchilarni asta-sekin yuqori darajadagi fikrlashga olib chiqadi.

Tadqiqotda o'yin elementlari, vizual materiallar, QR-topshiriqlar, jadval va diagrammalar asosidagi mashqlar kabi interaktiv metodlar o'quvchilarning qiziqishini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi. Bunday topshiriqlar o'quvchining nafaqat bilimni mustahkamlaydi, balki ichki motivatsiya va ijodiy yondashuvni rivojlantiradi. Shuningdek, oila bilan birgalikda bajariladigan qisqa vazifalar ota-onalarning o'quv jarayonidagi ishtirokini kuchaytirib, o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uy vazifalarining samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan yana biri — o'qituvchi, o'quvchi va ota-onalar o'rtasidagi tizimli hamkorlikdir.

Tadqiqotda kuzatilishicha, uy topshiriqlari izchil nazorat qilinib, dars jarayonida muhokama qilinsa, o'quvchilar ularni ko'proq mas'uliyat bilan bajaradi. Bundan tashqari, oson savoldan boshlanishi, murakkab vazifalarga esa qo'shimcha yo'l-yo'riqlar berilishi o'quvchi psixologik bosimini kamaytirib, mustaqil bajarish ehtimolini oshiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda uy topshiriqlarini optimallashtirish nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki ularning intellektual



rivoji, mustaqil o'qish madaniyati, ijodiy yondashuvi va ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

Shuning uchun o'qituvchilar tomonidan uy topshiriqlarini ilmiy asoslangan tamoyillar asosida loyihalash va tizimli qo'llash zamonaviy boshlang'ich ta'limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Haftalik uy topshiriqlarini optimallashtirish boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning o'zlashtirish samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridandir.

Topshiriqlar miqdori va shaklining to'g'ri tanlanishi, interaktiv metodlarning qo'llanilishi, ota-onalar ishtirokining ta'minlanishi va o'quvchi yosh xususiyatlarining inobatga olinishi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Optimallashtirilgan uy topshiriqlari nafaqat bilimlarni mustahkamlashga, balki o'quvchilarda mas'uliyat, mustaqillik, ijodkorlik kabi sifatning rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash tog'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni. 29 aprel, 2019.
2. Abdullayeva, Sh. A., & Askarov, A. D. (2019). Umumiy pedagogika. [Darslik]. Toshkent.
3. Matchonov, S., Bakiyeva, H., Gulamova, X., Yuldosheva, Sh., Xolboyeva, G. (2021). Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi [Darslik]. Ishonchli hamkor.
4. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – T: Aloqachi, 2006. – 163 b.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/takrorlash-va-mustahkamlash-darslarining-samaradorligini-oshirishda-turli-o-quv-topshiriqlaridan-foydalanish/viewer>
6. <https://eedi.substack.com/p/13-ideas-to-help-boost-homework-completion>
7. <https://saigraceacademy.com/homework-tips-for-students/>